

“AVESTO” TARIXIY MANBA SIFATIDA

Norxujayev Shaxboz Xusanjon o`g`li

Farg`ona davlat universiteti Tarix fakulteti Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo`yicha) yo`nalishi III bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O`rta Osiyo va Eron xalqlarining tarixiga oid eng qadimgi yozma manba hisoblangan “Avesto” kitobining shakllanish tarixi, uning tarkibi, tuzilishi, asrlar davomida bizgacha yetib kelgan qismlari haqida qisqacha ma`lumotlar keltirib o`tilgan. Shuningdek, “Avesto”ning tarixi va tuzilishi, uning aynan qaysi hududda shakllanganligi haqidagi nazariyalar va ushbu nazariyalar asosida xorijlik mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar borasida kerakli fikr va xulosalar bayon qilingan.

Kalit so`zlar: *“Avesto”, Xorazm, Ozarbayjon, yasht, Mitra, Ahuramazda, Ahriman, zand, Vishtasp, Yasna, Yasht, Videvdat, Visprat, zardushtiylik.*

"АВЕСТА" КАК ИСТОРИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК

Норхужаев Шахбоз Хусанович

Ферганский государственный университет, исторический факультет, история (по странам и регионам) студента 3 ступени

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены краткие сведения об истории формирования книги "Авеста", считающейся древнейшим письменным источником по истории народов Средней Азии и Ирана, ее составе, структуре и дошедших до нас частях. века. Также представлены необходимые мнения и выводы относительно истории и структуры "Авесты", теории о регионе, в котором она сформировалась, и исследования, проведенные зарубежными специалистами на основе этих теорий.

Ключевые слова: *"Авеста", Хорезм, Азербайджан, Яит, Митра, Ахурамазда, Ариман, Занд, Виштасп, Ясна, Яит, Videvdat, Виспрат, зороастризм.*

"AVESTA" AS A HISTORICAL SOURCE

Norkhujayev Shakhboz

Fergana State University, Faculty of History, History (by countries and regions) 3rd stage student

ABSTRACT

This article provides brief information about the history of the formation of the book "Avesta", which is considered the oldest written source of the history of the peoples of Central Asia and Iran, its composition, structure, and the parts that have reached us over the centuries. Also, the necessary opinions and conclusions regarding the history and structure of "Avesta", the theories about the region in which it was formed, and the researches carried out by foreign specialists based on these theories are presented.

Key words: "Avesta", Khorezm, Azerbaijan, Yasht, Mitra, Ahuramazda, Ahriman, Zand, Vishtasp, Yasna, Yasht, Videvdat, Visprat, Zoroastrianism.

KIRISH

Insoniyat tarixi shakllanibtki, qadimgi davrdan to hozirgi kungacha bo'lgan davr mobaynida insonlar o'zlarining o'tmishini yaratish, bayon qilish va o'zlaridan keyingi avlodlarga qoldirish uchun ko'plab ishlarni amalga oshirib keldilar. Bunda ular qoyatoshlarga, daraxt po'stloqlariga va yozish yoki chizish mumkin bo'lgan turli xil buyumlarga o'zlarining kundalik hayotlaridagi voqealarni bayon qilganlar. Aynan mana shular dastlabki manbalarga misol bo'la oladi. Tarix bizga guvohlik beradiki, asrlar davomida har bir davrda yaratilgan va ma'lum bir hududda shakllangan muhit va mintaqaga tegishli manbalar mavjud bo'lib, ular o'z davri uchun qimmatli ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Ana shunday qimmatli yozuv va axborotlarni o'zida shakllantirgan tarixiy manbalardan biri "Avesto" dir.

Ma'lumki dastlabki sivilizatsiyalar tarixi qadimgi sharqda, so'ngra Yunonistondagi Krit orolida Minoy sivilizatsiyasi bilan boshlangan edi. Shuningdek, sivilizatsiyalar dunyoning ko'plab mintaqalarida bo'lganidek, O'rta Osiyo, jumladan, hozirgi O'zbekiston hududlarida ham vujudga keldi. Buni "Avesto" nomi bilan ma'lum bo'lgan muqaddas kitob ham isbotlaydi. Dunyodagi eng qadimiy dinlardan biri zardushtiylik (otashparastlik — zoroastrizm) dini bo'lib, "Avesto" ana shu zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanadi [4; 94].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'rta Osiyo va Eron xalqlarining tarixiga oid eng qadimgi yozma manba – bu zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"dir. O'rta Osiyo qadimgi jamiyatining xo'jalik hayoti, ijtimoiy munosabatlari va mafkurasini o'rganishda "Avesto" ma'lumotlari juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. "Avesto" so'zining ma'nosi haqida turli farazlar uchraydi. Ko'p eronshunos olimlar bu atama o'rta eron (pahlaviy) tilidagi "apastak" (keyinroq – "avastay") so'zidan olingan bo'lib, "asos, poydevor" degan ma'noni anglatadi, deb hisoblaydilar. Boshqa tilshunoslarning fikricha, bu so'z "amr, qoida" deb tarjima qilinadi [2; 57].

"Avesto"dagi zardushtiy ilohlar sharafiga bitilgan madhiyalar (yashtlar) bo'lib, bu kitob, darhaqiqat, O'rta Osiyoda vujudga kelgan, deyishga asos bo'ladi. Masalan, iloh Mitraga bag'ishlangan alqovda Zardusht tug'ilgan yurtning maftunkor tavsifi berilgan. Bu shunday diyorki, deyiladi "Avesto"da, "u yerda dovyurak hukmdorlar jangga o'tlanadi; baland, xilvat, seryaylovlar tog'larda chorva miriqib o'tlaydi; chuqur ko'llarda baland to'lqinlar ko'tariladi va kemalar qatnayotgan keng daryolar oqimi Porutdagi Ishkat, Xareyvadagi Marv, Gava, So'g'diyonaga, yoki Xorazmga qarab oqadi". Xullas, Zardushtning vatani bo'lgan diyorki tavsifi va nomlari tilga olingan jug'rofiy joylar O'rta Osiyoga to'g'ri keladi. "Avesto" bilan bir qatorda "Zand-Avesto" kitobi ham mavjud. "Zand" so'zi "bilim, ta'limot" degan ma'noni anglatadi. Dastlab "zend" yoki "zand" deganda "Avesto"ga yozilgan sharh tushunilgan. Keyinchalik Sosoniylar davrida "Avesto"ning o'rta fors tiliga qilingan tarjimai hamda unga yozilgan sharhlar birgalikda "Zand-Avesto" [2; 58] deb atalgan.

MUHOKAMA

Ilmiy adabiyotlarda "Avesto"ning vujudga kelishi davri xususida turli nuqtai nazarlar uchraydi. Aksariyat olimlar uning matnlari bir necha asr davomida, ya'ni mil. avv. VII asrdan to milodiy IV asrgacha, asta-sekinlik bilan shakllanib borgan, deb hisoblaydilar. "Avesto" qayerda vujudga kelgan, degan savolga ham yagona javob yo'q. Sosoniylar va ulardan keyingi an'anaga ko'ra, zardushtiylik ta'limotining asoschisi Zardusht Antropatena (Ozarbayjon) dan bo'lgan. Beruniy ham o'zining "Osor ul-boqiya" ("O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar") nomli kitobida Zardusht Ozarbayjonda, Safid Tuman ismli odamning oilasida to'g'ilgan, deb yozadi. Bundan kelib chiqib, fransuz olimi J.Darmsteter va ozarbayjonlik tadqiqotchi I.Aliyev "Avesto" Midiya (hozirgi Eronning shimoli-g'arbiy qismi – Janubiy Ozarbayjon) da tug'ilgan, degan xulosa qilishadi. Zardushtiylikning vatani Seyiston va unga tutash hududlar (Sharqiy Eron) bo'lgan, degan boshqa nuqtai nazar ham bor. Biroq, ko'pchilik eronshunos olimlar (V.V.Struve, S.P.Tolstov, F.Altxaym va boshqalar) zardushtiylikning muqaddas kitobi Amudaryoga tutash hududlar, ya'ni Baktriya yo Xorazmda paydo bo'lgan, deb hisoblaydilar. Oxirgi paytlarda bu nuqtai nazarni eronlik olimlar, jumladan Ibrohim Pur Dovud [2; 57-58] ham yoqlab chiqdilar.

Zardushtiy ilohlarga bag'ishlangan alqovlar va oyatlar Kayoniylar sulolasidan bo'lgan podsho Vishtasp (Gishtasp) davrida ilk marotaba yagona kitob shakliga keltirildi. Ammo keyingi tarixiy voqealar jarayonida, aniqrog'i, Makedoniyalik Iskandarning Sharqqa yurishi davrida bu kitob yo'qoldi. Ikkinchi marta "Avesto"ning parchalari Parfiya podshosi Vologez III hukmronligi davrida alohida kitobga to'planib, sharhlar ("Zand-Avesta") bilan boyitildi. Ammo arablar bosqini davrida "Avesto" va "Zand-Avesto"ning talay qismi yana yo'qotildi [2; 58-59].

"Avesto"ning tarixda rasmiy qayta tiklanishi Sosoniylar dalatining asoschisi Ardesher Bobakon (226-242 y) hukmdorligi davrida amalga oshirildi. "Avesto"

matnlarini tartibga solish bilan davlatning bosh diniy rahnamosi Tansar shug'ullandi. "Dinkard"ning beshinchi kitobida keltirilishicha: Janobi oliylari, shohlar shohi Bobakon o'g'li Ardasher o'zining diniy rahnamosi Tansar maslahatlariga amal qilgan holda, ta'limotning tarqalib ketgan qismlarini saroyga to'plash haqida buyruq berdi. Tansar o'z ishiga kirishib, barcha to'plangan qismlarni izchil tahlil qilgan holda, aniq xulosalar asosida bir yo'nalishni tanlab oldi. Qolgan qismlar va yo'nalishlar qonundan tashqarida, deb e'lon qilindi. Tansar quyidagicha buyruq berdi: "Shu vaqtdan boshlab Mazdaga e'tiqod qilish yo'nalishidagi har qanday o'zgacha talqinlar bizning shaxsiy ma'sulligimiz ostida hal qilinadi, chunki hozirgi kunda tartibga va tizimga solingan bilimlarga o'zgartirish kiritishga hojat yo'q".

Shopur I (242-272) davriga kelib "Avesto"ning Tansar tomonidan tartibga keltirilgan qismlari, imperiya hududlaridan tashqaridan yozib olingan amalda bo'lgan alohida qismlar bilan to'ldirildi. "Dinkard"ning beshinchi kitobida bu haqda quyidagicha ma'lumot berilgan: "Ardasher o'g'li, shahanshoh Shopur Hindiston, Vizantiya imperiyasi va boshqa mamlakatlarda tarqalib ketgan, o'z ichiga tibbiyot, astronomiya, makon va zamon, materiya, dunyoning yaratilishi, turmush-tarzi, rivojlanish kabi bilimlar va jarayonlarni o'zida mujassamlashtirgan diniy matnlarni "Avesto" tarkibiga qo'shish va shoh xazinasida saqlashni buyurdi". "Avesto"ning beshinchi marta tartibga solinishi IV asr o'rtalarida Shopur II (309-379) hukmdorligi davrida amalga oshirilgan. Bu ishni bajarishda mo'badlarning mo'badi Ozorpod Mehrospanon (290-371) ning xizmatini alohida ta'kidlash lozim. Mehrospanon birinchi navbatda mamlakatdagi barcha "Avesto" matnlarini yoddan bilgan kohinlarni to'playdi. Chunki bu zardushtiy ulamolar yodgorlikni o'qish va qiroat qilishda matniy aniqlik, ichki musiqiylikni saqlashga jiddiy e'tibor berishgan. Ozorpod yuborgan 7 kohin Marv hamda Xorazmga borib avestoxon kohinlardan "Vendidod"ning eng mukammal nusxasini yozib olib, podsholik ixtiyoriga topshirgan. Qiyosiy tahlil jarayonida bu yozuvlar "Vendidod"ning komil nusxasi deb topilgan.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, "Avesto" tili Sharqiy eroniy tillarning eng qadimgi shevalaridan biri bo'lib, olimlar fikriga ko'ra, qadimgi fors tiliga nisbatan ancha oldingi bosqichda, taxminan mil. avv. II mingyillikning oxirlari – I mingyillikning boshlarida paydo bo'lgan. Bu til faqat "Avesto"dan ma'lum bo'lganligi sababli, u "Avesto" tili deb ataladi. "Avesto" keng hududda joylashgan jamiyatni tasvirlab, yozuvsiz zamonlarga oid tasavvurlarni ham o'zida aks etgan. Ular qadimgi qabilalarning og'zaki ijodidir. "Avesto" madhiyalari ilohlarga, tabiiy kuchlarga, Quyosh va afsonaviy qahramonlarga bag'ishlangan. Asrlar davomida bu qo'shiqlar – madhiyalar og'zaki ijod namunasi bo'lib, diniy marosimlarda va bayramlarda ijro etilgan [3; 119].

Zardusht yaratgan ilohiy kitobning o'zi bizgacha yetib kelmagan. Faqat u haqida yozilgan tarixiy manbalar bor, xolos. Zardusht yashagan davrda kishilik jamiyati

ilgarilab rivojlana bordi. O'rta Osiyoda o'troq xo'jalikka o'tila boshladi, sug'oriladigan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik borgan sayin taraqqiy etdi. Yangi-yangi shaharlar, obod qishloqlarning paydo bo'lishi o'troq yashash turmush tarzining afzalliklarini ko'rsata bordi. Ana shu o'troqlik turmush tarzining odamlarga benihoya kulfatlar keltirayotgan ko'chmanchilikka asoslangan turmush tarziga nisbatan afzalliklarini ommaga yetkazish davrning asosiy muammosi bo'lgan. Ana shu zaruriy muammoni Zardusht hammadan oldin ko'ra olgan va uni hal qilish yo'llarini topa olgan. Xalqlarni, qabilalarni birlashtirib, farovonlikka erishtirishning birdan bir yo'li yakkaxudolik – vahdoniyatga o'tish, deb bildi va o'zining butun ongli faoliyatini shu muqaddas ishga bag'ishlab, yakkaxudolik uchun olib borilgan urushda o'zi ham halok bo'ldi [4; 96].

"Avesta" kitobi Eron va O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy tuzumi, xo'jaligi, turmush tarzi va ma'naviy olami to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. "Avesto"da erkin, aslzodalar ("azata") bilan bir qatorda patriarxal oilalarda teng huquqli bo'lmagan, qaram shaxslar ("vira", "vaysa" va "pariaytar") tilga olinadi. Kitobda jamiyatdagi "ijtimoiy-kasbiy" guruhlar, ya'ni kohinlar, jangchilar, ziroatkorlar, chorvadorlar va hunarmandlar sanab o'tilgan, shuningdek, daxyupati – viloyat hokimi hamda sastar – "hokim", "hukmdor" kabi mansabdorlar tilga olinadi. Demak, "Avesto" vujudga kelgan davrda O'rta Osiyo aholisi asosan dehqonchilik va chorvadorlik bilan mashg'ul bo'lgan va jamiyat urug' jamoasidan davlatchilikka o'tish bosqichini boshdan kechirgan [2; 59].

Zardushtiylik dini rasmiy tus olguniga qadar Avestoning bo'laklari Turon va Eron zamini xalqlari orasida tarqalgan. Ushbu – Ahuramazdaning Zardusht orqali yuborilgan ilohiy xabarlar deb hisoblangan bo'laklar turli diniy duolar, madhiyalar sifatida yig'ila boshlangan. Bular Zardushtning o'limidan keyin kitob holida jamlangan va "Avesto" – "O'rnatilgan, qat'iy qilib belgilangan qonun-qoidalar" deb nom olgan. Bu qadimiy yozma manba bizgacha to'liq holda etib kelmagan. "Avesto" haqida Abu Rayhon Beruniy shunday yozadi: "Yilnoma kitoblarida bunday deyilgan: podshoh Doro ibn Doro xazinasida Avestoning 12 ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtda Avestoning beshdan uchi yo'qolib ketdi". Avestoning Aleksandr Makedonskiy tomonidan Gretsiyaga olib ketilgani, zarur joylarini tarjima ettirib, qolganini kuydirtirib yuborgani, 12 ming qoramol terisidagi tillo matn haqida keyingi davrlarda yaratilgan zardushtiylik adabiyotida ma'lumotlar bor.

NATIJA

Bizgacha yetib kelgan "Avesto" 4 qismdan iborat, bular Yasna, Yasht, Videvdat va Visprat deb nomlanadi. Yasna ("qurbonlik", "ibodat") – asosiy marosimlar paytida o'qiladigan matnlar; Yasht ("e'zoz", "alqov") – zardushtiy ilohlar sha'niga aytiladigan

maqto'vlar; Videvat ("devlar va jinlarga qarshi qonunlar") – marosimlar paytida pokizalikni saqlashga oid ko'rsatmalar (bu qism keyinchalik noaniqroq tarzda Vendidod deb atalgan); Visprat ("barcha hukmdorlar") – duolar va katta ibodat paytida o'qiladigan matnlar to'plami (keyingi noaniqroq nomi – Vispered) dan iborat qismlar hisoblanadi. Bundan tashqari, "Avesto" tarkibiga hajman katta bo'lmagan boshqa bo'limlar ham kiradi [2; 59].

Olimlarning katta bir guruhi: V.V.Struve, K.V.Trever, S.P.Tolstov, N.Proxorov va boshqalar Zardushtiylik dinining vatani O'rta Osiyo deb isbotlaydilar. A.O.Makovelskiy ham shu fikrga qo'shilishga moyildir. Bu guruh olimlar Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da yakkeyu yagona xudo – Ahuramazda yaratgan 16 mamlakatning nomi berilgan. Bu mamlakatlardan ikkitasi afsonaviy bo'lsa, to'qqiztasi O'rta Osiyoga tegishli bo'lgan viloyat va shaharlar sanaladi. Qolgan beshtasi Hindiston, Ozarbayjon, Armaniston hududlariga qarashlidir. Masalan: Sug'diyona (Gava), Marg'iyona (Mavru), Baqtriya (Baxdi), Nisoya (Ashgabat atrofi), Hirot, Kobul, Tus (Xuroson), Aryonamvayjo (Xorazm), Varana (Turkmaniston – Eron chegaralari oralig'i) tilga olinadi. "Avesto" kitobida yer dumaloq shaklda yaratilganligi, uning atrofi okeanlar bilan o'ralganligi, nomlari keltirilgan mamlakatlarda xudo Ahuramazda ezgulik qonunlarini Zardusht orqali vahiy qilganligi haqida yozilgan. Iymonsiz odamlar yashayotgan mamlakatlar jumlasiga Parfiyona podsholigining markazi Nisoya va Midiyaning eng katta shahri Raga kiritiladi. Fors tadqiqotchisi Kapadia fikricha, Zardushtning ilohiy faoliyati Vishtaspa podsholigining poytaxti Balx shahri bilan bog'liqdir. U podshohlar homiyligida Zardusht Baqtriya payg'ambariga aylanganligiga diqqate'tiborni qaratadi.

Zardushtiylik bo'yicha ilgari ko'pxudolilik dinidan rasmodat bo'lib qolgan murdalarni olovda kuydirib, kulini dafn etishni qat'iy qoralab, marhum suyaklarini maxsus ostadon (ossuar)larga solib, ko'mishdan iborat yangicha odatlar joriy qilingan. Bunday ostadonlar, tadqiqotchi Y.A.Rapoportning ta'kidlashicha, asosan O'rta Osiyo hududlari yer ostidan topilayotgan bo'lib, Eron hududida esa bitta-yarimta uchramoqda, xolos. Bu hol Zardushtiylikning vatani O'rta Osiyo deb aytish uchun tarixiy asos bo'la oladi [4; 95-96].

"Avesto"ning yagona nusxasi Kopengagenda saqlanmoqda. Ushbu qo'lyozma asosida 1933-1944-yillarda uning 6 jilddan iborat faksimil nashri amalga oshirildi. "Avesto" qator mamlakatlarning eronshunos olimlari tomonidan yetarli darajada o'rganildi (K.Zaleman, E.E.Bertels, M.Boys, V.V.Struve va b.). U fransuz (Anketel Dyuperron), rus (K.A.Kossovich, I.Stebelin-Kamenskiy), ingliz (L.X.Mayls), daniya (A.Xristensen), fors (Ibrohim Pur Dovud), o'zbek (M.Ishoqov, A.Mahmud) va boshqa tillarga tarjima qilingan. 2001-yilda O'zbekistonda tantanali ravishda "Avesto"ning 2700-yilligi nishonlandi [2; 59].

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, "Avesto" asarida patriarxal urug' jamoasi haqida, uning uchinchi qismi "Videvdat"da iqtisodiy tengsizlik sinfiy tabaqalanish haqidagi muammolar ochiladi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi va undagi sinfiy tabaqalanish jarayoni to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Shunday qilib "Avesto" miloddan avvalgi IX–VII asrlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot haqida g'oyatda muhim ma'lumotlar beruvchi xalqimizning boy ma'naviy merosidir. "Avesto"da keltirilgan jamiyatning ijtimoiy tarkibi haqidagi ma'lumotlarga suyanib fikr yuritadigan bo'lsak, miloddan avvalgi I mingyillikning birinchi choragida O'rta Osiyo hududida ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib, yangi, ilk sinfiy jamiyat tarkib topayotgan jarayonining guvohi bo'lamiz. Bu esa mazkur mintaqa tarixi uchun qanchalik qimmatga ega manba ekanligidan dalolat beradi.

"Avesto"ning tub ma'nomohiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal", degan tamoyilda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini ko'rishimiz mumkin. "Ezgu niyat, so'z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g'oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma'naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog'liq, nechog'li mustahkam hayotiy asosga ega ekani, ayniqsa, e'tiborlidir" [1; 32], deb yozdi Islom Karimov.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
2. Arslonzoda R. Manbashunoslik. Darslik. – Farg'ona: Classic, 2022.
3. Sagdullayev A. O'zbekiston tarixi. 1-kitob. – Toshkent: VNESHINVESTPROM, 2019.
4. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. – Toshkent: Sharq, 2010.
5. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. – Toshkent, 1971.
6. Homidov H. "Avesto" fayzlari. – Toshkent, 2001.